



**Tadcqiqot** UZ

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**28 FEVURAL  
№25**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
4-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
25-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-4**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
25-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-4**

**ТОШКЕНТ-2021**



**УУК 001 (062)**  
**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 25-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 18 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## **22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ  
ЖАМИЯТИМИЗДА ТУТГАН ЎРНИ

<b>1. Заретдинова Несибели Курбанбаевна</b> СОЦИОМЕТРИЯ МЕТОДЫНЫҢ ӘҲМИЙЕТЛИЛИГИ .....	7
<b>2. Egamberdiev Pxom Ergashevich</b> FUQARO MUHOFAZASI TIZIMLARIDA XABAR BERISH VA ALOQANI TASHKILLASHTIRISH .....	10
<b>3. Saydaev O'ktam Tashbekovich</b> TOSHQINLAR .....	12
<b>4. Shomirzaev Otabek Quvonovich</b> TABIIY LANDSHAFTLAR VA ULARNING MUHOFAZASI.....	14
<b>5. Jonibekov Shuhrat Baxtiyorovich</b> GIDROTEKNIKA INSHOOTLARIDAGI AVARIYALAR.....	16



## СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДА ТУТГАН ЎРНИ

### СОЦИОМЕТРИЯ МЕТОДЫНЫҢ АҲМИЙЕТЛИЛИГИ

**Заретдинова Несибели Курбанбаевна**

Қорақалпоқ Давлат Университети Ижтимоий

фанлар кафедраси ўқитувчиси

Телефон: +998913067348

z.nesibeli@karsu.uz

**Аннотация:** Усы илимий мақалада социологиялық изертлеу усулларынан бири социометрия методы ҳаққында мағлұматлар берилген. Социометрия усулының теориялық тийкарлары ҳам эмпирикалық изертлеулерде пайдаланыу зэрүрлиги баян етилген. Бул методтың пайда болыу тарийхы ҳам тийкаршылары ҳаққында көбирек мағлұматлар берилген. Сондай-ақ бул методты жасларды үйрениу барысында жәнеде раўажландырып қолланыу аҳмийетине тоқталып өтилген.

**Таяныш сөзлер:** Социология, социометрия, изертлеу, топар, социологиялық изертлеулер, позитив, негатив, теория, индивид, социаллық атом.

Мәмлекетимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев тәрәпинен 2019 жылы 22-февраль күни ПФ-5567 “Социологиялық изертлеулер өткерийди мәмлекет тәрәпинен қоллап-қуўатлау” ҳаққында пәрманы қабыл етилди. Бул пәрман бойынша мәмлекетимизде «Жәмийетшилик пикир» орайының искерлигин елде жетилистирийу, кең жәмийетшиликтиң пикирин үйрениуге байланыслы мәселелер, социологиялық изертлеулер алып барыушы орайлардың искерлигин раўажландырыу, ЖОО да социология кафедраларын ашыу мәселелери ҳаққында тоқталып өтиледі.[1]

Мәмлекетимизде жәмийетшилик пикирин үйрениу, изертлеу мәселелери менен шуғылланыушы социолог кадрларды жетилистирийу мәселесиде актуаллыққа ийе болып есапланады. Себеби социолог жәмийетти үйрениуде социология теорияларына тийкарланып изертлеу жұмысларын алып барыушы шахс есапланады.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёев: «Биз жасларға байланыслы мәмлекетлик сиясатты шетке шықпастан, қатаң даўам еттиремиз. Бул сиясатты ең үстем ўазыйпаларымыз сыпатында бүгин заман талап етип атырған жоқары дәрежеге көтеремиз» деп айтып өткен еди [2].

Президентимиз тәрәпинен Жасларға байланыслы мәмлекетлик сиясатында «Жаслар-келешек қурыушысы» ураны астында жасларымыздың ҳуқықларын, еркинликлерин қорғау, оларды миллий ҳам улыўмаинсаныйлық қәдриятларға ҳүрмет руўхында тәрбиялау, демократиялық жәмийет ҳам пухаралық жәмийетти раўажландырыу бойынша реформаларында жаслардың белсендилигин асырыу, жаслардың заманағөй кәсип-өнерлерди ийелеуи ушын шәрт-шәраятлар жаратыу, бәнтлигин тәмийнлеу, исбилерменлик қәбилетин раўажландырыу, жәмлеспеген жаслардыңбос ўақтың мазмунлы өткизиуин шөлкемлестирийу, жасларға байланыслы мәмлекетлик сиясатты әмелге асырыуда қатнасыушы ўәкиллик органлары үстинен жәмийетшилик қадағалауды шөлкемлестирийу, нәтийжеси бойынша шаралар көрийу баслы мәселе етип белгиленди.

Жоқарыда белгилеп берилген мәселелер ҳаққында жаслардыңсоциал-экономикалық жағдайы, кәсип таңлауында болған қызығыушылығын арттырыуды үйрениуде социология илиминдеги еңаз қолланылған метод есапланған социометрия усулы арқалы изертлеулерди өткизиудин зэрүрлигине тоқталып өтпекшимиз.

Социометрия илимий изертлеу усулы болып, ол шахслардың минез-құлқы, ис-хәрәкетлери, өз-ара қатнасықларының дүзилиси ямаса мазмунын сорау яки тексерийу арқалы



уйренилади. Социометриялық усуллар мийнет жәмәәтлери, жәмийетлик шөлкемлер, бирлеспелер, шаңарақ хәм басқада киши топарларда пайда болған қатнасықлар системасын изертлейди. Сол себептен социометрия социология пәниниң әхмийетли бөлегин қурайды.

Соның менен биргеликте социометрия методының ең актуал тәрәпи – бул киши топарларды изертлеўде, оның нәтийжесинде алынған мағлыұматларының әмелий характери хәм буның тийкарында хәр түрли тараўдағы тәжирийбели басқарыўшыларға (билимлендириўде, мәмлекетлик хызметинде, бизнесте х.т.б.) инсаний ресурсларды рационаллық түрде пайдаланыўда хәм шөлкемлердеги болып атырған процесслерди оптимизациялаўда көмек бериўи. Себеби, киши топар – бул бир тутас социаллық системасының әхмийетли элементи болып есапланады, сондай-ақ, ол өзинде жәмийетлик қатнасларды жәмлеп соларға итибарды қаратады хәмде сол жәмийетлик қатнасларды топарлардың ишки қатнасларына киритеди. Усы қатнасықлардың механизмин, хәрекетин билиў – бул социаллық басқарыўдың ең керекли, зәрүрли илимий тийкарында қурылған элементи болып есапланады

Буннан тысқары жәмийеттиң психологиялық ықлымына бир қанша факторлар тәсир көрсетиўи мумкин.

Оқыўшы, студентлер топарындағы руўхый-психологиялық ықлымның шөлкемлестириўшиси бул – оқытыўшы, топар басшысы есапланады. Хәр бир топар басшысы жәмәәтте жақсы психологиялық ықлымды жаратыўи ушын оған тәсир етиўши факторларды жақсы билиўи зәрүр. Себеби жақсы шөлкемлестирилген топарда нормал психологиялық ықлым пайда болғанда ғана топар ағзаларының өзлестириўи, тәртип-интизамды сақлаўи да жақсы жолға қойылады.

Топар хәм жәмәәтлердеги шахслар аралық мунәсебетлерди уйрениўде бақлаў, эксперимент, интервью алыў методларының тийкарында алынған өлшемлеринен пайдаланылады. Шахслар аралық мунәсебетлерди уйрениў методларынан бири - социометрия усылы есапланады. Бул методтың әхмийети сонда, инсан ол яки бул көрсеткиш бойынша топар ағзаларын таңлайды. Таңлаўлар тийкарында шахслардың топардағы шахслар аралық мунәсебетлер системасында тутқан орны ҳаққында жуўмақ шығарады.

Демек, социометрия методы жәрдемінде топар ағзалары ортасындағы симпатия яки антипатияны анықлаў мумкин, социометрия методын (тезлик пенен өткериў) оператив тәризде өткериў, оның нәтийжелерин болса математикалық рәўиште қайта ислеў хәм графикалық тәризде көрсетиў мумкин.

Социометрия изертлеў методы сыпатында тән алыў менен бирге оның базыбир кемшиликлеринде көрсетип өтиў зәрүр. Тийкарғы кемшилик соннан ибарат, социометрия методы бар болған мунәсебетлер структурасының себеплерин имканиятын бермейди. Соның ушын да социометриядан алынған мағлыұматлар бақлаў, сәўбетлесий, психологиялық-педагогикалық эксперимент нәтийжелери менен толтырылыўи лазым.

Социометрия методынан топар, жәмәәт ағзалары өз-ара бир-бирлерин жақсы билген ҳалатларда ғана, рәсмий ис жузинде болатуғын хәм жеке мунәсебетлердеги ҳақыйкый орнын анықлаў, бирлемши топарлар бар екенлигин яки жоқ екенлигин табыў, бирлемши топарлардың пайда болыў хәм тарқап кетиў себеплерин анықлаў мумкин.

Социометриялық изертлеўдин нәтийжесин объективлик тәризде анализлеўи социометриялық индекслерди есаплаўдың тийкарында болады. Бунда жекке (персоналлық) хәм топарлық индекслери анықланады. Жекке (персоналлық) дегенимизге топардағы индивидтиң социометриялық статусы хәм экспансивлиги киреди, ал топарлыққа – топардың қарама қарсылылығы хәм экспансивлиги, топардың бирлесийлилик индекси киреди.

Социометрия түсиниги XIX әсир ақырында математикалық усулдың социаллық турмысқа киритилиўи менен пайда болды. Социометрияға XX әсирде француз социологы, философы Г.Д.Гурвич (1894-1965) хәм социолог, психиатр хәм социаллық психолог Джекоб Л.Морено (1892-1974) тәрәпинен тийкар салынған. Олар киши социаллық топарларда шахслар-аралық мунәсебетлерди изертлеўде – микросоциологиядағы социометрия усылын қолланды. Әсиресе социаллық психологияда социометрияның әхмийети жүдә үлкен. Джекоб Л.Мореноны социометрияның тийкаршысы деп есаплаўға ҳақымыз бар, себеби ол XX әсирдин 30-жылларында “социометрия” деген терминди усыныс етип айрықша социопсихологиялық теорияны жаратты, сондай-ақ, оның айтыўынша қандайда бир социаллық системадағы өзгерислердин баслы шараяты – бул киши топардағы психологиялық



қатнасықлардың өзгериші болып есапланады.

Джекоб Мореноның ең ақмийетли мийнетлери: «Социаллық конфигурациялардың социометриялық статистикасы» (1937), «Социометрия хәрекетте» (1942), «Изертлеу методларына социометрияның үлесі» (1947), «Социометрия басқа социаллық илимлер менен қатнасықта» (1947), «Субадамзатлық мәдениетлардың социометриясы» (1948), «Социометрия. Эксперименталлық метод хәм жәмийет хәкқында илим» (1951), «Социометрия хәм адам хәкқында илим» (1956), «Топарлық психотерапия хәм психодрама» (1958), «Социометриялық оқыушы (читатель)» (1960), «Социометрия тийкарлары. Жаңа жәмийеттиң қурылысына жоллар» (1967).[6]

1937 жылы Дж. Морено «Социометрия» деген журналды ашады, оның ишинде психолог, социолог, антрополог, психиатр хәм педагоглардың мақалаларын басып шығарады, жәнede 1956 жылдан баслап бул журнал Америкалы социологиялық жәмәеттиң рәсмий органы болып қәлиплеседи.

Джекоб Мореноны социаллық теоретик деп есаплауға болады, себеби ол заманагөй батыс социология хәм социаллық психологияның раўажланыуына жүдә үлкен тәсир көрсетеди. Дж.Мореноның социометрия системасы 5 тийкарға ийе.[3]

1. Адамлардың өз-ара хош көриулик хәм жақтырмаслық тийкарындағы сезим қуўаты. Оларды анықлау социометрияның тийкарғы ўазыйпаларынан бири есапланады.

2. Жәмийеттиң “социаллық атомы” айрықша индивид емес, бәлким индивидлердин биргеликтеги мүнәсибетинен ибарат. Бул байланыс процесси еки дәрежеге ийе өз-өзинен жүзеге келиуши хәм реал- бунда сезимли шерик усы баскышта үйрениледи.

3. Социаллық гравитация нызамы.

4. Социологиялық нызам.

5. Социодинамикалық нызам.[4]

Демек, мүнәсибетлер қурамалы философиялық түсиник болып, социаллық раўажланыудың тийкарғы хәрекетлендириуши жөнелислерин белгилеп бериуши дерек есапланады. Өмирде болып атырған ўақыя хәм хәдийселер мүнәсибетлеринде өз шешимин табады. Мүнәсибетлерге хызмет қылмайтуғын хәр қандай илимий бағдар кризиске ушырауы мүмкин.

Сонлықтанда мәмлекетимизде жаслар арасында бар болған машқалаларды социометрия методынан пайдаланып үйрениу жүдә үлкен актуаллыққа ийе болып есапланады.

Солай етип, социометрия методы объектив хәм анық мағлыўматлар, яғный шахстың топар ямаса жәмәеттеги реал жағдайын көрсетиуши мағлыўматлар алыуға имканият береді хәм әмелий мақсетлерде пайдаланыу мүмкин. Мысалы, келеси депутатлыққа талабанлар усы метод пенен пайдаланып жетекши болыуға мүмкиншилиги барма яки жокпа усыны анықлап алыу үшін пайдаланыуға қолайлы. Сондай-ақ, А.В. Петровскийдиң пикири бойынша бүгинги күнде социометриялық методы, техникасы – бул гейпара аз пайдаланылған усулларының бири, сондай-ақ, оның жәрдемінде киши топарлардың ишиндеги өз-ара жеке қатнасықлар системаның туўрыдан-туўры бақлаудан жасырын түрдеги болып атырған хәрекетлерди ямаса қатнасықларды анықлауға болады.[5]

Социаллық психологияның киши социаллық топарларды анализлеуиндеги мүмкиншиликлерин бир қатар кеңейтиуинде басқа методлар менен биргеликте социометриялық методтың келешектеги раўажланыу хәм пайдаланылыуында әмелге асырылады.

#### **Пайдаланылған әдебиятлар:**

1. Өзбекстан Республикасы Президентиниң Пәрманы 2019 жыл 22 февраль ПФ-5667-санлы Ташкент 2019.

2. Ш.М.Мирзиёев «Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз» Ташкент 2017 йил 14 б

3. Морено Я.Л. Социометрия: Эксперименталлық метод хәм жәмийет хәкқында илим. М., 2004.

4. Юнусов К. Социология оқыу қолланба. Андижан, 1997.

5. Петровский А.В. Топарлар // Психологияға кирисиу. М., 1995. 12 бап. Б. 397.

6. [https://spravochnick.ru/sociologiya/sociometriya\\_moreno](https://spravochnick.ru/sociologiya/sociometriya_moreno)



## FUQARO MUHOFAZASI TIZIMLARIDA XABAR BERISH VA ALOQANI TASHKILLASHTIRISH

**Egamberdiev Ilhom Ergashevich**

Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi  
Hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazi uslubchi- o‘qituvchisi  
Telefon raqami: +998993462785  
Elektron pochta manzili: egamberdiyevilhom76@gmail.com

**Anotatsiya:** Aholi muhofazasi qandaydir xavf-xatar tahdidi tug‘ilgani yoki yuzaga kelganligi to‘g‘risida xabar berish va axborot uzatishni o‘z vaqtida amalga oshirishdan boshlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Respublika darajasi, Mahalliy darajasi, Ob‘ekt darajasi, Xabar berish, siganllari.

Fuqaro muhofazasi tizimida radio, radiorele, simli va siganl beruvchi aloqa vositalari ishlatiladi.

Xabar berish tizimi mahalliy va markazlashgan tizimlarga bo‘linadi. Xabar berishning mahalliy tizimlari halokatli suv bosishi ehtimoli mavjud hududda, atom energiyasi ob‘ektlarida, kimyoviy xavfli ob‘ektlar joylashgan hududlarda aholini zudlik bilan xabardor qilish maqsadida tashkil etiladi.

Mahalliy tizimlarning asosiy afzalligi-tezkorlikdir.

Xabar berishning markazlashgan tizimi:

- shaharlarda, tumanlarda, ob‘ektlarda va qishloq joylarda yirik aholi punktlarida markazlashgan va markazlashmagan tarzda “Diqqat, barchaga!” signalini berish;
- simli eshittirish tarmoqlari mahalliy radioeshittirish stansiyalarida og‘zaki axborot berish yo‘li bilan aholiga xabar berish;
- siganllarini va axborotni respublika, viloyat, shahar, tuman, vazirlik va idoralarning boshqaruv punktlariga, shahar, tuman ichki ishlar bo‘limlariga yetkazish;
- xonadon va xizmat telefonlaridan mansabdor shaxslarga doimiy xabar berish;
- fuqaro muhofazasi xabar berish signalini iqtisodiyot ob‘ektlari ishchi-xizmatchilariga, FVDT tuzilmalariga va O‘zbekiston Respublikasining barcha aholisiga yetkazishni ta‘minlashi kerak.

Aloqa va xabar berish tizimining asosiy vazifalari.

Aloqa va xabar berish tizimini tashkil etish uchun fuqaro muhofazasi boshliqlari mas‘uldir. Aloqa va xabar berish tizimining asosiy vazifalari;

- signallarni o‘z vaqtida berish va qabul qilib olish, FVDT tegishli rejimlarini o‘rnatish xususida farmoyish yuborish;
- FVDT boshqaruv organlari o‘rtasida quyidan yuqoriga va yuqoridan quyiga axborot almashishining ishonchli bo‘lishini ta‘minlash;
- Fuqaro muhofazasi bo‘limlari, boshqarmalari, xizmatlari va kuchlari bilan axborot almashinuvini ta‘minlash;
- FVDT boshqaruv organlari tomonidan bashorat qilingan yoki sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida aholiga o‘z vaqtida xabar berishi.

1. Respublika darajasida:

Respublika markazlashtirilgan xabar berish tizimini, shuningdek axborot bilan ta‘minlash va boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi (BAT)ni yaratish va uni doimiy tayyor holatda saqlash;

Boshqarish va axborotni uzatish uchun umumiy foydalaniladigan telekommunikatsiya viloyat tarmoqlaridan, radio, televidenie va boshqa texnik vositalaridan markazlashtirilgan holda foydalanishni ta‘minlash;

Kimyoviy va boshqa yuqori darajada xavfli ob‘ektlarda hamda ularga yondosh xududlarda xabar berish va axborotlarning mahalliy tizimini, shuningdek, suv omborining gidrotexnik inshootlarida signalizatsiya va xabar berishning avtomatlashtirilgan mahalliy tizimlarini loyihalashtirish va yaratishni nazorat qilish/

2. Mahalliy darajasida:

Viloyat ichki aloqa va xabar berish tizimlari, shuningdek boshqaruvning va axborot bilan ta‘minlashning avtomatlashtirilgan tizimi (BAT)ni tashkil etish va doimiy tayyor holatda saqlash;

Boshqarish va axborotni uzatish uchun umumiy foydalaniladigan telekommunikatsiyalar viloyat tarmoqlaridan, radio, televidenie va boshqa texnik vositalaridan markazlashtirilgan holda



foydalanishni ta'minlash;

FVDTning funksional quyi tizimlari bilan birgalikda kimyoviy va boshqa yuqori darajada xavfli ob'ektlar va ularga yondosh xududlarda xabar berish va axborotning mahalliy tizimlarini, shuningdek suv omborlarining gidrotexnika inshootlarida signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatik tizimlarini yaratish.

3. Ob'ekt darajasida:

Kimyoviy va boshqa yuqori darajada xavfli ob'ektlarda xabar qilish va axborotning mahalliy tizimlarini, shuningdek gidrotexnik inshootlarda signalizatsiya va xabar qilishning mahalliy avtomatik tizimlarini yaratish ishlarini tashkil etish;

Xabar berish signallari va ularga binoan aholining harakati.

Aholi muhofazasi qandaydir xavf-xatar tahdidi tug'ilgani yoki yuzaga kelganligi to'g'risida xabar berish va axborot uzatishni o'z vaqtida amalga oshirishdan boshlanadi.

Xabar berish shartlashib olingan, oldindan belgilab qo'yilgan va aholiga aniq tushunali bo'lgan signallar, (sirena ovozi, ovoz chiqaruvchi buyumlarni urish va h.k.) orqali amalga oshiriladi.

Xavf signalini aholiga yetkazishning asosiy vositasi bo'lib elektr sirenalari hisoblanadi.

Qanday xavf tug'ilmasin, elektr sirenalari ishga tushiriladi. Ularning hayqirig'iga korxonalarining uzuq-uzuq gudoklari jo'r bo'ladi. Bu fuqaro muhofazasining yagona "Diqqat, barchaga!" signalidir.

Sirena ovozi eshitilgan zahoti televizor, radiopryomnik, radiokarnaylarni ishlatib qo'yib, mahalliy hokimiyat organlarining yoki favqulodda vaziyatlar boshqarmalarining yuzaga kelgan tahdidning xarakteri, ko'lami, shuningdek bunday sharoitlarda aholining to'g'ri harakatlari to'g'risidagi tavsiyalarni tinglash kerak.

Ishonchli va barqaror aloqa, shuningdek haqqoniy axborot-aholi muhofazasini tashkil etish va favqulodda vaziyatlarning oldini olish tadbirlari zanjiridagi asosiy bo'g'inlardan biridir.

Xabar berish-sust muhofaza usuli bo'lib, uning o'rni beqiyosdir. Bekoriga ogohlantirilgan inson yarim qutqarilgan inson deb aytishmaydi.

#### **Foydalilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustdagi "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi Qonuni.

3. <https://lex.uz/>



## TOSHQINLAR

**Saydaev O'ktam Tashbekovich**

Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi katta o'qituvchisi

Telefon raqami: +99891500-01-09

Elektron pochta manzili: Saydaev O'ktam 1973@gmail.com

**Anotatsiya:** Toshqinlarning hosil bo'lishi, garchan bir hil sababdan bo'lsada, ya'ni ob-havo sharoitining keskin o'zgarishi natijasida me'yoridan ko'p yog'ingarchilik bo'lishi, aholi yashash joylari va hududlarga turli ta'sir ko'rsatadi. Bular ichida eng kuchlisi halokatli toshqinlar hisoblanib, ular uzoq muddat yoqqan yomg'ir natijasida yuzaga keladi. Bizning sharoitda toshqinlar bilan birga sellar doim kuzatiladi.

**Kalit so'zlar:** Tabiiy ofat, Сув тошқинлар, Selli toshqinlar, soylar, kuchli jala, ko'chki, gidroinshootlar, gidrometeorologik sharoit.

Tabiiy ofatlar ichida katta talofatlar keltiradigan, aholini og'ir tahlikaga soladigan va qisqa vaqt ichida shiddatli bo'ladigan suv toshqinlaridir.

Toshqin-daryolar, soylar, dengizlar, ko'llarda suv sathining keskin ko'tarilishi oqibatida yuzaga kelib, yer yuzasining katta maydonlarini vaqtincha suv bosishidir.

Toshqinlar ko'p holatlarda kuchli jala, harorat ko'tarilishi bilan qor va muzliklarning keskin erishi natijasida havzalardagi suv miqdorining ko'payishidan paydo bo'ladi. Bundan tashqari suv havzalari atrofidagi yonbag'irlarda ko'chki sodir bo'lishi qoyalardan tog' jinslari o'pirilishi bilan havzadagi suv toshib chiqishi va tug'onlarning behosdan buzilib ketishi oqibatida ham sodir bo'lishi mumkin. Odatda bunday toshqinlar juda havfli bo'ladi.

Toshqinlarning yana bir turi shamolning katta tezligi bilan bog'liq bo'lib, dengiz suvini qirg'oqlarga ma'lum balandlikda bostirib kelishidan paydo bo'ladi. Lekin, toshqinning bu turi mamlakatimiz hududlarida uchramaydi.

Toshqinlarning hosil bo'lishi, garchan bir hil sababdan bo'lsada, ya'ni ob-havo sharoitining keskin o'zgarishi natijasida me'yoridan ko'p yog'ingarchilik bo'lishi, aholi yashash joylari va hududlarga turli ta'sir ko'rsatadi. Bular ichida eng kuchlisi halokatli toshqinlar hisoblanib, ular uzoq muddat yoqqan yomg'ir natijasida yuzaga keladi. Bizning sharoitda toshqinlar bilan birga sellar doim kuzatiladi.

Selli toshqinlar odatda qisqa vaqtda paydo bo'lib, asosiy hususiyatlaridan biri shitob bilan suv kelishi oqibatida suv inshootlari atrofini, qirg'oqlarni, ba'zan tug'on va ko'priklarni yuvib ketadi. Natijada suv sathining ko'tarilishidan katta-katta maydonlarga suv bostirib yuborishi oqibatida shu joydagi ekinlar, muxandis inshootlar katta zarar ko'radi.

Ayniqsa daryolar, soylar va turli gidroinshootlar atroflarida sohillarni mustahkamlash, obod maskanlarga aylantirish vazifalari nafaqat rahbarlardan, balki aholining o'zi ham bu ishlarda faol ishtirok etishligi hukumat qarorlarida o'z aksini topgan. Shu bois, turli suv inshootlari atrofidagi maydonlarni go'zal gushaga aylantirib odamlar xordiq chiqaradigan kichik-kichik dam olish shahobchalari tashkil etish mahalla qo'mitasi faollarining diqqat e'tiborida bo'lishi kerak. Lekin, yuqorida ta'kidlaganimizdek, tabiiy ofatlar to'satdan paydo bo'lib, hayotimizga katta havf solishi bilan birga ular chegara tanlamaydi. Yerning zaif va pastkam joylarini butkul buzib yuboradi.

Toshqin sodir bo'lsa qanday muhofaza qoidalariga rioya qilish kerak:

Avvalo, toshqin havfi bor joylarda har qanday qurilish inshootlari barpo etishga chek qo'yish kerak.

Toshqinning hosil bo'lish hususiyatiga ko'ra ba'zi ehtiyot choralarini amalga oshirish lozim. Ya'ni oziq-ovqat, ichimlik suvi, kiyim-kechak va boshqa maishiy-xo'jalik zahiralari ega bo'lish, ularni suv bosmaydigan joylarda saqlash. Kerakli xo'jjatlar, zarur mol-mulk bilan evakuatsiyaga tayyorgarlik ko'rish zarur.

Toshqin juda katta tezlik bilan avj olayotgan bo'lsa, zudlik bilan yaqin atrofdagi tepalikka qarab yurish, bino sharoitida bo'lsangiz yuqori qavatlariga ko'tarilish, tomlarga chiqib olish tadbirlarini amalga oshirish lozim. Ammo, barcha ehtiyot choralariga qaramasdan mobodo, suv ichida qolsangiz, eng muhimi sarosima va vahimaga berilmasdan xotirjamlik bilan ustki va oyoq kiyimlarni yechish, suv oqimi bo'ylab birorta balandroq yoki mustahkam asosga ega bo'lgan



predmetni tanlash, suv bilan birga harakat qilayotgan buyumlardan o'zingizni ehtiyot qilish choralarini ko'rishingiz lozim.

Zaruratga ko'ra uylarni, xonalarni tark etayotganingizda suv, gaz, elektr tarmoqlarini havfsiz holatga keltirishni unutmaslik kerak. Yerto'lalarda oziq-ovqat zahirasi mavjud bo'lgan taqdirda ularni quruq bo'lgan joylarga, suv bosib zarar yetkazmaydigan joylarga olib qo'ygan ma'qul.

Albatta, ehtiyot choralarini oldindan tashkillashtirib uyushqoqlik bilan olib borilsa, har qanday fojidan keladigan talofat va zararni kamaytirishga erishiladi. Avvalo, har qanday tabiiy ofat yuzaga kelgan maydon va hududda o'ziga yarasha antisanitariya holati yuzaga keladi. Buning oqibatida odamlar o'rtasida, tirik organizmlar o'rtasida yuqumli zararlanish holati tarqaladi. Shu vaziyatdan chiqish uchun ma'lum muddatgacha faqat qaynatilgan suv iste'mol qilish va quruq oziq-ovqatlar bilan chegaralangan ma'qul. Zarurat tufayli uy-joylardan boshqa yerga o'tilgandan so'ng qaytib kelinganda uyning holatini, atrof yo'laklarni sinchiklab ko'zdan kechirish kerak. Hech vaqt uyga kirishga shoshilmang. Toshqin tufayli uylarning devorlari zah tortishi, namgarchilik me'yoridan ortib ketishi oqibatida inshootlar bardoshligi zaif bo'lib qoladi, natijada uncha katta bo'lmagan tashqi kuch ta'sirida binolar qulab ketishi mumkin. Suv to'planib qolgan joylardan alohida yo'laklar hosil qilib yurish joylarini tashkil etish kerak.

Xona ichida qolgan oziq-ovqatni iste'mol qilishdan o'zingizni saqlang. Mavjud asbob-uskunalaridan, ayniqsa elektr asboblaridan foydalanishda nihoyatda ehtiyot bo'ling. Chunki to'liq qurimagan asboblar boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishiga sababchi bo'lib, qo'shimcha nohushliklarni olib keladi. Bundan tashqari har qanday tabiiy ofatni bartaraf qilishda ham o'ziga yarasha talab va qoidalari mavjud. Hususan, toshqindan so'ng uni bartaraf qilishda keng miqyosda aholi tomonidan qanday ishlar amalga oshirilishi lozim?

Avvalo, yuqorida ta'kidlanganidek atrof sinchiklab o'rganilgandan so'ng, suv bosgan joylar ortiqcha turli materiallardan xalos qilinib quritish ishlari amalga oshiriladi. Inshootlarda yarim o'pirilgan, qayta tiklab bo'lmaydigan joylar aniqlansa tezda bo'zib tashlanishi va u joylar tozalanishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 455-sonli qarori.
2. <https://lex.uz/>



## TABIY LANDSHAFTLAR VA ULARNING MUHOFAZASI.

**Shomirzaev Otabek Quvonovich**

Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi  
Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchisi.  
Telefon raqami: +998972757986  
Elektron pochta manzili: shomirzayevfvb@gmail.com

**Anotatsiya:** Mamlakatimiz mustaqilligi bois tabiiy landshaft va tabiiy yodgorliklarni asrab avaylashga yangicha munosabat va qarashlar shakllana boshlandi. Endilikda bunday maydonlarni qayta tiklash, e'tiborni kuchaytirish, ularni sayyohlik va dam olish manzillariga aylantirish bosh vazifa bo'lib qolmoqda.

**Kalit so'zlar:** tirik organizmlar olami, gidroekologik rejim, xiyobon yo'llar, tabiiy yodgorliklar, noyob turli o'simliklar, madaniy landshaftlar.

Hozirda yer sharining juda katta qismi madaniy landshaftlar bilan qoplangan bo'lib, ularda relefi, iqlimi (tabiiy sharoiti), tirik organizmlar olami, muayyan gidroekologik rejim va chegaraga ega bo'lgan tabiiy maydonlar mavjud. Ana shunday hususiyatga ega bo'lgan maydonlar tabiiy landshaftlarni tashkil etadi. Ularga dala, bog'lar, shaharlar, xiyobon, yo'llar, qishloqlar va boshqalar kiradi. Tabiiy landshaftlar deganda tabiiy, hududiy majmua, yer qobig'ining muayyan, asl holdagi qismi va bir-biriga o'xshash jihatlari bilan qiyoslangan maydon muhiti tushuniladi.

Afsuski, tabiiy landshaftlar inson faoliyatining bevosita yoki bilvosita ta'siroti ostida o'zgarib bormoqda. Chunki insonning xo'jalik faoliyati tabiiy landshaftlardan butunlay farq qilib, jo'g'rofiy sharoitda muayyan sharoitga ta'sir ko'rsatadi. Bu asosan ishlab chiqarish kuchlari va texnika taraqqiyoti, fan, sanoatrivoji va insonning tabiatehsonlariga bo'lgan ehtiyoj boiskuchayib boraveradi. Natijada tabiiy landshaftlar qiyofasi butunlay yoki qisman o'zgartirilib, o'sha hududda inson mehnati mahsuli sifatida – madaniy landshaftlar barpo qilinadi. Bunday landshaftlarni biz insonning tabiatga ta'siri, ya'ni antropogen landshaftlar deb ham yuritimiz. Natijada tabiiy landshaftlar zarar ko'radi va o'zgarishga uchrab, eroziya kuchayadi, tirik organizmlar turlari keskin kamayishi oqibatida biologik xilma-xillikka jiddiy zarar yetkaziladi va hokazo. Olimlarning ta'kidlashicha keyingi 300 yilda yer yuzida o'rmonzorlar zahirasi 50 % ga kamayib ketgan. Ana shunday maydonlarda antropogen landshaftlar vujudga kelgan. Bularga madaniy yaylovlar, haydaladigan yerlar kiradi va har yili inson hosil olish maqsadida ko'plab o'g'it, suv va sarf xarajatlar qilmoqda. Yirik shaharlar va industriya markazlarida katta miqdorda chiqitlar va zaharli birikmalar miqdori ortib bormoqda. Ko'ramizki, inson o'z hayot – faoliyati davomida tabiiy landshaftlarga ta'sir ko'rsatadi. Bunday ayanchli ahvol va noxush oqibatlar har qanday sharoitda, muhitda va jamiyatda landshaftlarni himoya qilishni eng muhim muammolar qatoriga qo'yadi. Tabiiy landshaftlar muhofazasi asosan 2 yo'l bilan, ya'ni landshaftlarning o'zini yaxlit bir majmua sifatida himoya qilish yoki uning muayyan bir qismini himoya qilish orqali amalga oshiriladi.

Tabiiy landshaftlarning in'ikosi, yo'ldoshi sifatida ona sayyoramizning turli va ajoyib go'shalari (bizda ham) da milliy bog'lar, qo'riqxonalar, buyurtmalar, yirik istirohat bog'lari, dam olish maskanlari, milliy yodgorliklar majmuasi va boshqalar hisoblanadi. Bundan tashqari o'lkamizda diqqatga sazovor va tabiat qo'yniga yaqin bo'lgan go'shalar ham talayginadir. Bularga tabiiy yodgorliklar, g'or, sharshara va buloqlardan iborat geologik, o'simlik va hayvonot izlarining toshga aylanishi, qadimgi yozuv va tasvirlardan iborat paleontologik qoya, jarliklardan iborat landshaft va daraxt hamda o'simliklarning noyob turlari yoki qoplamini o'z ichiga olgan botanik mazmundagi yodgorliklar ham kiradi. Bularga misol tariqasida Omonqo'ton darasining qirg'og'idagi tosh, Sayrobdagi chorchinor, Urgut va Hazratbashir qishloqlari orasida joylashgan Qirqtog'dagi o'pirilma chuqurlar, Urgutdagi chinor va buloqlar, Nurota bulog'i, Morguzar va Nurota tog'lari orasida joylashgan Ilono'tdi darasini keltirish mumkin. Tabiatimizning bu kabi diqqatga sazovor joylari, orombaxsh maskanlari va tarixiy – tabiiy go'shalari ko'plab topiladi.

Landshaft muhofazasi va tarbiyaviy ahamiyati. Mamlakatimiz mustaqilligi bois tabiiy landshaft va tabiiy yodgorliklarni asrab avaylashga yangicha munosabat va qarashlar shakllana boshlandi. Endilikda bunday maydonlarni qayta tiklash, e'tiborni kuchaytirish, ularni sayyohlik va dam olish manzillariga aylantirish bosh vazifa bo'lib qolmoqda. Chunki ularni tiklash, rivojlantirish va yaxshilash tabiatni muhofaza qilishning o'ziga xos ko'rinishi hamdir. Ayniqsa, bunday



ko‘rinishdagi tabiat qo‘yiniga sayyohlarni va aholini jalb etish, keluvchilar sonini ko‘paytirish, bu boradagi faoliyatlarini kuchaytirish, shu tariqa dam olishlarini boshqa tashkilotlar ishtirokida uyushtirish muhim hisoblanadi. Buning uchun bizda yetarli sharoitlar va davlat buyurtmasi asosidagi mablag‘lar topiladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan bunyodkorlik qurulishlarida ham tabiiy landshaftlarga zarar yetkazmaslik choralari ko‘rilmogda. Hukumatimizning katta sa‘yi harakati bilan qurilgan Qamchin dovoni va uning atrofida tabiat go‘zalliklarining saqlab qolinishi noyob qurulishlarimizdan biri bo‘ldi. Shu bois landshaftlarni yaxlit holda muhofaza qilish tabiatimizning nodir yodgorliklarini o‘z holicha, yaxlit va go‘zal holatda saqlash hamda kelgusi avlodlarga yetkazish, ulardan o‘quv, ilmiy, tarbiyaviy, madaniy, estetik zavq olish ob‘ekti sifatida muntazam ravishda foydalanish muhimdir. Bunday hol qolaversa, o‘lkashunoslikda ekoturizmni yanada rivojlantirish ishlariga ham munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi. Zero, tabiatning bu kabi oromgohlari, betakror ko‘hna yodgorliklari nainki halqimiz, balki yoshlarimiz va qolaversa mamlakatimizning turli burchaklaridan tashrif qiluvchilar va xorijiy sayyohlarimiz, ziyoratgohlar uyushtirayotgan o‘rta hamda keksa yoshdagi otaxononaxonlarimiz uchun dam olish, tabiatning betakror go‘zalligidan bahra olish orqali salomatligini tiklash, o‘zini chiniqtirishda muhim hisoblanadi. Bu shuningdek, insonning tabiat in‘omlariga bo‘lgan munosabatini ham tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktabrdagi «tabiiy, texnogen va ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida»gi 455-sonli qarori.
2. <https://lex.uz/>



## GIDROTEKNIKA INSHOOTLARIDAGI AVARIYALAR

**Jonibekov Shuhrat Baxtiyorovich**

Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi  
Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchisi.

Telefon raqami: +998994745434

Elektron pochta manzili: shuxratbekjonibekov1987@gmail.com

**Anotatsiya:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 455-sonli va 515-sonli qarorlari shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi Konunlari bo'yicha tadbir etilmoqda.

**Kalit so'zlar:** FVDT (Favqulodda vaziyatlar Davlat tizimi), Yuqorigi bef, Pastki bef, tabiiy to'g'onlar, gidrouzellar, muhofaza qilish choralari, ko'chkilar, sellar, qor ko'chkilari, zilzilalar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 455-sonli qaroriga asosan "Gidrotexnik xalokatlar va avariya texnologiyasi tushadigan favqulodda vaziyatlar turlariga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 515-sonli qaroriga asosan aholini tabiiy hamda texnologiyasi tushadigan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o'tayotgan aholi guruhlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilaydi.

### **Gidrotexnika inshootlarida sodir bo'ladigan favqulodda vaziyatlarni kelib chiqish sabablari va ularning salbiy oqibatlari.**

Gidrotexnik (gidrodinamik) falokat (halokat) - bu gidrotexnik inshootni (GTI) yoki uning biror qismini ishdan chiqib, buzilishi natijasida boshqarib bo'lmaydigan juda katta suv massasini bostirib kelishi tufayli vujudga keladigan favqulodda vaziyatdir.

Suv omborlari, daryolar, kanallardagi gidrotexnik inshootning buzilishi, baland tog' ko'llarining urib ketishi natijasida suv bosishi gidrotexnik falokatlar va falokatlarni sodir bo'lishiga olib keladi hamda odamlarni qurbon bo'lishiga, sanoat va qishloq xo'jalik ob'ektlarini ishini izdan chiqishiga, suv bosgan hududdagi aholining hayot faoliyatini izdan chiqishiga sabab bo'ladi va shoshilinch ko'chirish (evakuatsiya) tadbirlarini o'tkazishni talab qiladi.

Gidrodinamik xavfli ob'ektlar-bu suv oqimi bo'ylab o'zidan oldingi va o'zidan keyingi suv sathlarida farq paydo qilib beradigan inshoot. Bosimga ega bo'lgan gidrotexnika inshootlari (sun'iy va tabiiy to'g'onlar) bunday ob'ektlar qatoriga kiradi.

- Bef-bu daryo (kanal, irmoq va h.k.) ning bosim inshooti (to'g'on, shlyuz va h.k.) ga tutashib (tegib) turadigan qismi;

- Yuqorigi bef-bu daryo (kanal, irmoq va h.k.) ning oqim bo'ylab bosim inshooti (to'g'on, shlyuz va h.k.) dan oldingi (yuqori) qismi yoki suvning yuqorigi sathi va u egallab turgan maydon;

- Pastki bef-bu daryo (kanal, irmoq va h.k.) ning oqim bo'ylab bosim inshooti (to'g'on, shlyuz va h.k.) dan keyingi (quyi) qismi yoki suvning pastki sathi va u egallab turgan maydon.

Gidrotexnika inshootlari:

1. Qaerdaligiga qarab:

- yer usti (daryo, ko'l, kanal va h.k.) inshootlari;

- yer osti (o'tkazgich quvurlar, tunnellar va h.k.) inshootlari.

2. Foydalanish maqsadi va hususiyatiga qarab:

suv-energetika inshootlari, suv ta'minoti inshootlari, sug'orish inshootlari, oqova chiqindi suvlar chiqarish inshootlari, suv-transport inshootlari, baliq xo'jaligi inshootlari, sport inshootlari, bezak inshootlari va h.k.

Bir qancha vazifalarni bajarishga mo'ljallanib, bir butun qilib birlashtirilgan gidrotexnik inshoot majmui gidrouzellar deb ataladi.

Gidrodinamik falokatlarning sabablari va turlari. Tabiiy to'g'onlar – tabiat xodisalari (ko'chkilar, sellar, qor ko'chkilari, zilzilalar va boshqalar)ning ta'sirida xosil bo'ladi.



### **Favqulodda vaziyatni sodir bo'lish ehtimolini tahminlash va unga baho berish.**

Havfli vaziyat o'chog'i bo'lishi mumkin bo'lgan gidrotexnika inshootlari va ularni buzilishi tufayli vujudga kelishi mumkin bo'lgan suv bosish zonasi hududlari xaritalarga (rejalarga, sxemalarga) tushirilib, bunday ob'ektlarga xos ko'rsatkichlar oldindan aniqlanadi.

Bu hujjatlar shu ob'ekt joylashgan hudud favqulodda vaziyatlar boshqarmalarida va bo'limlarida, shuningdek gidrotexnik xavfli ob'ektni quruvchi va ulardan foydalanuvchi vazirliklar (yoki idoralarda) va ularning joylardagi bo'linmalarida turadi. Shu sababli oldindan tahminlashda falokat (yoki halokat)ning sodir bo'lish ehtimolligi, ko'lami va harakteri hisobga olinadi.

To'satdan halokatli suv bosganda:

urib ketgan to'liq zarbidan saqlanish uchun shoshilinch choralar ko'riladi (balandlik joyga, pishiq inshoot ustiga chiqiladi, bordiyu to'liq yetib kelib qolsa-uning ichiga sho'ng'iladi);

- oldindan tayyorlab qo'yilgan qutqaruv vositasini (4-6 ta bir litrli plastmassa idishlar osilgan najot kamarini) taqib olinadi;

- agar odam imorat ichida (cherdakda va boshqa joyda) qolgan bo'lsa, qaerdaligini belgilab, qutqaruvchilar mo'ljal olishi uchun signal (kunduzi umuman bayroq - yaxshisi oq bayroq, kechasi esa fonus) osib qo'yiladi.

### **Gidrotexnika inshootlarini muhofaza qilish choralari.**

O'zbekiston Respublikasining "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi Konunning maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruksiya qilish, tiklash, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdir.

Gidrotexnika inshootlarini muhofaza qilish favqulodda vaziyatni oldini olishning eng asosiy omillaridan bo'lib, avvalo gidrotexnik inshootni to'g'ri loyihalash va qurish ulardan to'g'ri foydalanish, belgilangan ishlarni va ta'mirlash ishlarini vaqtida bajarish, qirg'oqni mahkamlash va tub mahkamlash ishlarini vaqtida o'tkazish lozim. Suv chiqarishni vaqtga muvofiq qayta taqsimlash yo'li bilan suvning maksimal zahirasini va maksimal sarflanishini kamaytirish, qo'shimcha suv omborlari yordamida toshqin suvlar oqimini tartibga solib turish kerak.

Bulardan tashqari gidrotexnik inshoot ahvolini doimo kuzatib turish (uskuna-jihozlar va yuksak malakali mutaxassislar yordamida), FVDT tarkibiga kiruvchi funksional kichik tizimlari va organlarini sohaga aloqali faoliyatini tizimli nazorat qilib turish, gidrotexnik inshoot zonasini begona kishilar kirishidan ishonchli qo'riqlash ishlarini olib borish talab etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktyabr dagi "Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi" to'g'risida"gi 455-sonli qarori.

2. Gidrotexnik inshootlarning havfsizligi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Toshkent. 20 avgust 1999 y.

3. <https://lex.uz/>

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(4-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2021

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000